

4-mavzu	Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish
----------------	--

MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Vaqti – 20 soat		talbalar soni 20-27 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli		amaliy
Mashg'ulotining rejasi	1. Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish. Animalistik janr asosida ishlash masalalari. 1-ilova 2. Rangtasvirga qo'yiladigan talablar. 2-ilova 3. "FSMU" uslubi. 3-ilova 4. Adabiyotlar bilan ishlash 4-ilova	
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish ko'nikma va malakalarini beradi. Eskizlar ishlashni o'rgatadi		
Pedagogik vazifalar: Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish haqida tushuncha beradi. Rangtasvirda mavzu asosida ishlash usullarini o'rgatadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni o'rgatish.		O'quv faoliyatining natijalari: Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish haqida tushunchaga ega bo'ladi. Rangtasvir asosida ishlashni o'rganadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni bilib oladi
O'qitish uslubi va texnikasi		Amaliy ish, master klass texnologiyasi
O'qitish vositalari		O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar, ko'rgazmali plakatlari, slaydlar.
O'qitish shakli		Guruh bo'lib ishlash.
O'qitish shart-sharoitlari		Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya va asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona
Monitoring va baholash		Mashg'ulot bo'yicha savol-javob, tahlil natijalari.

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Magistr
1-bosqich Kirish	1. Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish masalalari haqida ma'lumot beradi. 1-ilova	Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish masalalari haqida ma'lumot beradi
2-bosqich. Asosiy	2. Ekranda mavzuga qo'yiladigan talablar haqida namoyish qiladi va ularga qisqacha ta'rif beradi (2-ilova).	Ekranga rangtasvir faniga qo'yiladigan talablar haqida namoyishni ko'radi.
	3. Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan ishlash uchun ro'yhat beradi (3-ilova)	3. Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan tanishadi.
3-bosqich Yakuniy	Darsga yakun yasab, mavzu bo'yicha uyga vazifa beradi	Mavzu bo'yicha uyga vazifa oladilar.

Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish umumiy tushuncha (1-ilova)

Animal janr. Animal lotincha "anima" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "hayvon" demakdir. U tasviriy san'atning deyarli barcha turlarida mavjud. Xayvon

va qushlarni rasmini ishlochi rassomlarni animalist rassomlar deb yuritiladi. Bunday rassomlarning tabiatga, uni maxsuli hayvon zotiga muhabbati kuchli bo'ladi. Animal janr tasviriy san'atning mustaqil janri bo'lsada, hayvonlar tasviri turmush, portret, natyurmort janrlarida ham aks etishi mumkin.

Animalistik janri tasviriy san'at janrlari ichidagi "keksa" janrlardan anima janri bo'lib unda hayvonlar hayoti, ularning xususiyatlari, fel atvori o'z ifodasini topgan. Anima so'zining ma'nosi ham lotincha bo'lib hayvon ma'nosini anlatadi. Ibtidoiy davr rassomi o'z atrofida mavjud bo'lgan zubr, mamont, kiyik va boshqa hayvonlarning ko'rinishini haqqoniy tasvirlab bugungi kun tamoshabinini hamon lol qoldirib kelmoqda. Deyarli 10-15 ming yil avval ishlangan bu rasmlarda rassom hayvonlarga xos epchillik, kuch qudratlilikni mahorat bilan tasvirlaydi, bo'rtma tasvirini ishlaydi.

EvroOsiyo xududida yashab ijod qilgan skiflar ham san'at tarixida hayvonlarni tasvirlash uslublari bilan shu janr imkoniyatlarini kengaytirdilar. Qadimgi Misr tarixi ham animal janriga boy. Bu yerda hayvonlarning ulug'vor va haqqoniy haykallarni yasadilar. Chunki misrliklar hayvonlarga nisbatan hurmat bilan qaraganlar va ularni xudo darajasida e'zozlaganlar.

Qadimgi Amerika madaniyatida, u erning mahalliy aholisi - hindular ham animal janrida betakror asarlar yaratdilar. Xitoy madaniyatida bu janrda o'ta harakatli ajoib hayvonlarning haykallarini yaratdilar. Old Osiyoda buqa boshi tasviri keng uchraydi. Bunday deyarli 5000 yil avval ishlangan arfa asbobi tepa tomoniga ishlanga buqa boshi haykali o'zining hayotiyliigi bilan xarakterlansa. Ikkinchi tomondan ishlanish mahoratining yuqoriligi bilan ham kishini hayratlantiradi. Mohirona uslubda bajarilgan bu haykalda turli qimmatbaho madanlar uyg'unlikda yaratilgan. Ossuriya bo'rtma tasvirlaridagi ov manzaralarining aks ettiruvchi bo'rtma tasvirlar jahon haykaltaroshligining ajoyib namunasi hisoblanadi. Ov paytidagi harakat. Yaralangan sherlardagi so'nib borayotgan kuch haykaltarosh tomonidan ustalik bilan ko'rsatilgan.



Uyg'onish davriga kelib hayvonlarning o'ziga qarab rasmini ishlash odati kengayib bordi. Shunday rasmlarni italiyalik rassom Leonardo da Vinchi, nemis rassomi Albrex Dyurer ijodida uchratamiz. Anima janrining rivojlanishi va mustaqil janrga aylanishi 15-17 asrlarga borib taqaladi. Shu janrni boshlovchilari gollandiyalik A.Keyp va P.Potter hisoblanadi. Ular uy hayvonlarini tabiat qo'ynida, yaylovlarda mohirona tasvirlaydilar. 19 asrning yirik rassomi fransuz A.Bari hayvonlarni erksevar va yengil holda aks ettiradi. K.Truayon qishloq manzarasi qo'ynida osoyishta o'tlab yurgan hayvonlarni mehr bilan tasvirlaydi. Rus rassomlari V.Vatagin, haykaltarosh va rassom I.Yefimov o'z asarlarida hayvonlarning o'ziga xos fazilatlarini mohirona tasvirlaydilar.



O'zbek san'atida bu janr qadimiy bo'lib ibtidoiy davrning paleolit va ayniqsa mezolit va neolit davrida hayvonlarga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratildi. Zarautsoy rasmlari, Taqatosh, Xo'jakent tasvirlari shunga misol bo'la oladi. Tuproq qala, Varaxsha, Afrosiyob devoriy rasmlarida ham hayvonlar tasviri keng uchraydi. Turli qushlar yirtqich hayvonlar. Yengil bezakka boy ot va arxarlar tasviri shu davr devoriy rasmlariga alohida fayz kiritgan. O'zbek zamonaviy tasviriy san'atining rivojlanishi ham shu janrda boshlandi desak mubolag'a bo'lmaydi, Chunki 19 asr oxrida o'zbek san'tidagi yangi jarayon ayni shu san'atda ko'rina boshladi. Abduraxim toshtaroshning Buxoro amiri Olimxon saroyi kiraverishiga ishlagan sherlar haykali, knyaz Romanov saroyi atrofiga o'rnatilgan kiyik, it va qurbaqalar haykali shu yangi davr qarashining natijasi edi. 20 asr o'rtalariga kelib bu janr keng quloch yoya boshladi. Uning ijodkorlari paydo bo'la boshladi. Xalq ustalari Usto Umar Jo'raqulov, Xamro Raximova, keyinroq Abduraximovlar ijodida xalq san'ati uslubida bajarilgan afsonaviy hayvonlar, haykalchalari ko'rgazmalarda namoyish etila boshlandi. Professional haykaltaroshlik A.Boymatov, M.Ivanov, T.Qosimov, Sh.Mo'minova va boshqalar ijodida rivojlanib bordi.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari (2-ilova)

“Natyurmort” so’zining ma’nosi	*Jonsiz tabiat	Buyumlar	Drapirovka
“Ko’chma ko’rgazmalar birodarligi”ga a’zo bo’lgan va unda ijod etgan rassomlar qanday nom olgan?	*“Sayyor rassomlar”	“Ko’chmanchi rassomlar”	“Revolyutsion rassomlar”

“Mona Liza” asari muallifini ko’rsating?	*Leonardo da Vinchi	Mikelanjelo	A. Dyurer
“Monumental” so’zining ma’nosi nima?	*katta o’lchamli	kichik o’lchamli	tashviqot
“Renessans” so’zining ma’nosi	*uyg’onish davri	rassomlar davri	inqiroz davri
“Sayyor rassomlar” yulboshchisi va tashkilotchisi kim?	*I.Kramskoy	I.Repin	I.Shishkin
“Uyg’onish davri” degan iborani ilk bor italyan rassomi va san’atshunosi ... tomonidan aytilgan?	*Jorjo Vazare	Leonardo da Vinchi	Jotto
“O’rmonchi” nomini olgan rassomning familiyasi qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?	*Shishkin	Savrasov	Repin

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o’quv jarayonini baxs-munozarali o’tkazishda qo’llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o’z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o’z fikrini boshqalarga o’tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o’ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog’ozga o’z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko’rsating

M – ko’rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Savol	“Rangtasvir” faning predmeti va mazmuni to’g’risida nimalarni bilasiz?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko’rsating	
(M) Ko’rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Adabiyotlar ro’yxati (3-ilova):

1. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir. Innovatsiya ziyo, T. 2019
2. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir. “Poligraf”, T. 2017
3. Abduraxmonov G‘.M Kompozitsiya asoslari. “Iqtisod-moliya”, T. 2010

2.Qo'shimcha adabiyotlar:

4. Aggy Boshoff. Oil-painting Workshop, First American Edition, 2006 Published in the United States by DK Publishing, 375 Hudson Street, New York, 10014
5. Suzanne Brooker Techniques for rendering sky, terrain, trees and water.
6. Victoria Adams. All rights reserved.
7. Sultonov X. "Rangtasvir" (grizaylda ishlash) metodik qo'llanma TDPU rizografi, 2014
8. S.Abdirasilov, S.Mahkamova, N.Isaxojiyeva Tasviriy san'at to'garagi Toshkent, "Sharq", 2012
9. S.Abdirasilov, S.Mahkamova. "Iste'dod" Toshkent, TDPU rizografi, 2014

3.Elektron ta'lim resurslari

10. www.tdnu.uz
11. www.ZivoNet.Uz
12. www.edu.uz
13. tdpu-internet.ped

Mavzu yuzasidan uyga vazifa (*4-ilova*):

Mavzuli kompozitsiya ishlash. Tasvirlash jarayonida alohida narsalarni va ularning qismlarini katta-kichikligini har doim bir-biriga taqqoslab borish zarur. Rang bilan ishlash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha, albatta, metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.